

Od qavmidan keyin



19:00 / 20.02.2021 6211

Nuh qavmi ketidan Od qavmi kelganidek, Od qavmiga Samud qavmi voris bo'ldi. Samud qavmi od qavmining izidan borar edi, xuddi od qavmi Nuh ummatining izidan borganidek.

Samudning yerlari ham yashil (ko'kalamzor), chiroyli edi. Ularda bo'stonlar, buloqlar, tagidan anhorlar oqadigan bog'lar bor edi. Samud qavmi ham Od qavmi kabi imorat qurish, ekin ekish va bog'larni ko'paytirish bilan mashg'ul edi. Ular, aql va san'atda Od qavmidan o'zib ketdilar. Tog'larni o'yib, keng va chiroyli uylar qurardilar, toshlarga qoyilmaqom naqshlar solardilar. Tosh, ularni aqllari va san'atlari bilan yumshar edi. Ular shamga ishlov bergan kishidek toshga ishlov berardilar. Ularning shaharlariga kirgan inson ajoyibotlarni, jinlar qurgandek ulkan qasrlarni va devorlarda go'yoki bahor o'stirganidek chiroyli gullarni ko'rar edi. Alloh Samudga, osmon va yerda barakot eshiklarini ochgan edi. Alloh Samudga, barcha eshiklarni ochgan edi. Osmon ularga yomg'irni, yer esa o'simlik va gullarni, bog'lar meva va hosilni ayamadi. Alloh rizq va umrlariga baraka berdi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad